

O'QUVCHILARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI**Azimova Nigoraxon Rayimjonovna**

Andijon viloyati Ulug'nor tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli 4-umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarni oilaviy hayotga tayyorlashning qay darajada muhimligi va bu jarayon ishtirokchilari ya'ni ota-ona, o'qituvchi va psixologining vazifasi naqadar mas'uliyatli ekanligi hamda oila atalmish dargohning muqaddasligi haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: O'quvchi, muloqot, oila, pedagogik muloqot, psixolog.

Sharqda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga qadimdan jiddiy ahamiyat berilgan. Jumladan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Rizouddin Ibn Faxriddin kabi allomalar bu masala yuzasidan o'zlarining durdona fikrlarini tarixda qoldirib ketganlarki, ular hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ular «Nasixatnoma», «Pandnoma», «Hikmatnoma» tarzida bizgacha yetib kelgan. Unda asosiy e'tibor oila ilmining mazmun mohiyati, oila ma'rifatini tashkil etuvchi omillar va baxtli hayot kechirishni aslida hammaga ma'lum bo'lgan, lekin amalda har doim ham egallash oson bo'lmagan jihatlariga qaratilganidir.

Bugungi kunda O'zbekiston aholisining 62 foizini bolalar o'smirlar, xullas 30 yoshgacha bo'lgan yigit qizlar, ularning ma'lum qismini esa yosh oilalar tashkil etadi. Yosh oilalar jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy yangilanishi va yuksalishini muhim sub'ektlaridan bo'lib, ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan murakkab jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazishda va taraqqiyotni harakatda keltirishida muhim ro'l o'ynaydi. Shuning uchun hozirgi vaqtda yosh oilalarning ma'naviy-axloqiy va ruhiy olamini shakllantirish va rivojlantirishni chuqur va atroflicha tahlil etish ilmiy -amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.

A.Avloniy "Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir", degan fikri o'zbekning kun tartibidan tushmasligi lozim. Chunki avvalgiga o'xshab qariyalar keksalar yoshlarni odob axloqqa chaqirib yoshlar esa ularni hurmatlab, ularning o'gitiga amal qilish udumi yo'qolib bormoqda. Har kim o'zi bilan ovora birovning gapi birovga yoqmaydi. S.V.Kovolyov o'smir va qizlarda oila va nikoh tushunchalari haqidagi tasavvurlarga ega bo'lishlari juda muhimdir, deydi. Nikoh va sevgi tushunchalari 13-15 yoshli bolalarda qarama-qarshi tushunchalar ekanligi bilan kuzatiladi, ya'ni ular sevgi va nikoh bir-biriga teskari tushunchalar ekan deb tushunadilar. Yoshlar oilani jiddiy qabul qilmaydilar. Natijada juda ko'p xatoliklarga yo'l qo'yib, keyinchalik oilaning muhimligini psixologik tan oladilar. Bizning asosiy vazifamiz shuki, o'smirlarda oilaning qadrini, sevgi, nikoh oiladagi sevgini ro'li muhimligini va u uzoq va baxtli hayot garovi ekanligini uqtirishdir.

O'smirlarning oilaviy hayotga psixologik tayyorlash

O'smirlik davri inson hayotida muhim bosqichlardan biri bo'lib, bu davrda shaxsiylik shakllanadi, dunyoqarash kengayadi va mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyati rivojlanadi. Kelajakda baxtli va barqaror oilaviy hayot kechirish uchun o'smirlarni oilaviy hayotga psixologik jihatdan tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

1. O'smirlik davrida oilaviy hayot tushunchasi

O'smirlar uchun oilaviy hayot tushunchasi asosan:

Oilaviy munosabatlar – ota-ona va farzand o'rtasidagi muloqot, hurmat, e'tibor.

Mas'uliyat va majburiyatlar – oila qurish faqat muhabbat emas, balki mas'uliyat ham ekanini tushunish.

Hissiy tayyorgarlik – o‘zini boshqarish, sabrli va murosali bo‘lish qobiliyatlarini rivojlantirish.

Moliya va maishiy hayot – mustaqillik, moliyaviy barqarorlik va uy xo‘jaligi yuritish ko‘nikmalari.

2. O‘smirlarni oilaviy hayotga psixologik tayyorlashning asosiy yo‘nalishlari

Ijobiy oilaviy qadriyatlarni shakllantirish

Oilaviy qadriyatlar va an‘analar haqida bilim berish

- O‘smirlarga oilaning jamiyatdagi ahamiyatini tushuntirish.
- Oilada mehr, o‘zaro hurmat va hamkorlikning o‘rni haqida suhbatlar o‘tkazish.

Oilaviy nizolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish

- Murosaga kelish va muammolarni konstruktiv hal qilish usullarini o‘rgatish.
- Konfliktlar paydo bo‘lganda, sabrli va ob‘ektiv bo‘lish muhimligini tushuntirish.

Ota-onalar bilan ochiq muloqotni rivojlantirish

- Ota-onalar bilan ochiq va ishonchli suhbat qilishga o‘rgatish.
- O‘z his-tuyg‘ularini to‘g‘ri ifodalashni shakllantirish.

Emotsional tayyorgarlik va shaxsiy rivojlanish

O‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini boshqarish

- O‘smirlar o‘z his-tuyg‘ularini nazorat qilish va to‘g‘ri yo‘naltirishni o‘rganishlari lozim.
- O‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish bo‘yicha treninglar o‘tkazish.

Sabr va murosaga kelish qobiliyatini shakllantirish

- Muhabbat va romantik munosabatlar uzoq muddatli barqarorlik talab qilishini tushuntirish.
- Oila a‘zolari o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni hal qilish bo‘yicha hayotiy misollar asosida maslahat berish.

Stressni boshqarish va qiyin vaziyatlarga tayyorgarlik

- Oila hayotida muammolar bo‘lishi tabiiy ekanligini tushuntirish.
- Stressni kamaytirish usullari, nafas olish mashqlari va meditatsiya usullari bo‘yicha treninglar o‘tkazish.

Oila qurishda mas‘uliyatni anglash

- Er-xotin o‘rtasidagi munosabatlarda mas‘uliyat va teng huquqlilik tushunchalarini tushuntirish.
- Bola tarbiyasi va ota-onalik haqida dastlabki bilimlar berish.

Oila deb atalmish muqaddas makon, «oila qasri»ning mustahkamligi shu qasrning poydevori bo‘lmish nikoh oldi omillari xususiyatlariga, ularning qay darajada to‘g‘ri va mustahkam qo‘yilishiga bog‘liq. Agar shu poydevor yetuk, mustahkam bo‘lsa, uning ustida qurilgan imorat ham ko‘rkam, yorug‘, unda istiqomat qiluvchilarga qulaylik, xotirjamlik, tinchlik, huzur-halovat bag‘ishlaydigan bo‘ladi. Agar shu nikoh oldi omillarining oilani yuzaga kelishiga ta‘siri noo‘rin bo‘lsa, u shoshilinch, bo‘sh, qiyshiq qurilsa, uning ustiga o‘rnatilgan oila imoratining devori ham qiyshiq va omonat bo‘lib boraveradi va u shu imoratning bir kuni kelib qulashi, buzilib ketishi xavfini tug‘diradi. Bunday poydevor ustiga qurilgan imorat qulab tushmagani, buzilib ketmagani taqdirda ham, unda istiqomat qiluvchilarga xotirjamlik, tinchlik, quvonch baxsh eta olmaydi. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarga, ularning ilm olish va kasb-hunar egasi bo‘lishiga katta e‘tibor berilmoqda. Lekin bularning o‘zi yoshlarning kelgusi hayotlarining farovon bo‘lishligi uchun yetarli emas, balki ularga oilaviy hayot saboqlaridan psixologik bilim va tushunchalardan keng va yetarlicha ma‘lumot berish davr talabiga aylanib bormoqda. Chunki sog‘lom psixologik muhit qaror topgan oiladagina barkamol va yurt koriga yaraydigan kelajak avlodni voyaga yetkazish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Hasanov, D.Abdumadjidova, N. Atayeva. Psixologiya (psixologiya nazariyasi va amaliyoti asoslari) Ma‘ruza matni-Toshkent 2016, 5-bet. 3. S.L.

2. Rubinshteyn. Umumiy psixologiya asoslari 2006.
3. Dilova N.G. (2018). Buyuk ajdodlarimizning ta'limotlarida mujassamlashgan o'qituvchi bilan o'quvchilar xamkorligining pedagogik xususiyatlari. Zamonaviy ta'lim. №3, 63-68 b
4. Eshnaev N. J. (2021) "Ma'naviy-axloqiy muammolarni ilmiy tadqiqetishning o'ziga xos jihatlari", Academic research in educational sciences, vol 2 no 1, p. 364-504.